

**THE IMPORTANCE OF TEACHER-STUDENT RELATIONSHIPS IN IMPROVING THE
QUALITY OF EDUCATION**

Rasulova Dilrabo Rakhmatullayevna

Teacher of Jizzakh State Pedagogical University

ANNOTATION

In this article, the teacher-student relationship is discussed in order to improve the quality of education, there is psychological training for students to respect teachers and treat them well, the teacher in the process of teaching and educating children should follow universal and national traditions. it is said that they should teach the criteria of custom.

Keywords: education, quality, level, attitude, tradition, criterion, teacher, student, communication.

**TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHI-O'QUVCHI MUNOSABATLARINING
AHAMIYATI**

Rasulova Dilrabo Raxmatullayevna

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ta'lrim sifatini oshirishda o'qituvchi –o'quvchi munosabatlari haqida, o'quvchilar o'qituvchilarni hurmat qilib yaxshi muomala qilishlari uchun psixologik treninglar hajqda, O'qituvchi bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida umuminsoniy va milliy urf-odat mezonlaridan saboq berishlari kerakligi haqida so'z boradi.

Kalit so`zlar: ta'lrim, sifat, daraja, munosabat, urf-odat, mezon, o'qituvchi, o'quvchi, muloqot.

Muloqot o'z hususiyatlariga ko'ra shakl va ko'rinishlarga ega. Muloqot inson amaliy faoliyatining moddiy-ma'naviy shakllarini hamda uning ehtiyojlarini o'zida aks ettiradi.

O'qituvchining o'quvchilar bilan muomala madaniyati ularning fe'lavori, xulqi va olgan tarbiyasining amaliy hayotda namoyon bo'lishini bildiradi. Kishining madaniyati, avvalo uning muomalasi, atrofdagilar bilan munosabatida ko'zga tashlanadi. O'qimishli, madaniyatli, o'qituvchi hamkasbidan, o'quvchisidan nimani, qanday so'rashni, u yoki bu masala yuzasidan murojaat qilish mumkinmi yoki yo'qligini, oilaviy munosabatlarga dahldor masalalarga munosabat bildirish zaruriyati bormi yo'qligini yaxshi angraydi. Muomala jarayonida suhbatdoshining kayfiyatini ko'tarish, unga optimistik ruh bag'ishlash, uning o'z kuchiga ishonchini hosil qilish ham o'qituvchining eng muhim sifatlaridan biridir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tom ma'nodagi muomala madaniyatiga ega bo'lgan o'qituvchi shuhratparastlik, manmanlik, befarqlik, hasadgo'ylik, g'iybatchilik kabi illatlarga toqat qila olmaydi va unga qarshi kurashadi.

O'qituvchining muomala madaniyatining tarkibiy qismi nutq madaniyati bilan bog'liq. Chunki nutq va unda ifodalangan so'z kishiga ta'sir etuvchi qudratli psixologik kuchga ega. Uni faqat

o'zining mazmuni bilan emas, balki so'zlovchining aytيلayotgan fikrini ifoda qilish uslubi bilan ham ta'sir darajasi va qudratini yanada orttirish mumkin.

O'qituvchining muloqot madaniyati nafaqat shaxslararo munosabatlarga, balki shu bilan birga ishlab chiqarish, mehnat jamoasi, jamiyat hayotiga ham kerakligini hisobga oladigan bo'lsak, bugungi kunda o'quvchi, talabalar fe'l-atvorini o'rganish, ularning birbirlariga mehrmuruvvatli bo'lishga o'rgatish, diniy aqidaparastlik tomir otayotgan hozirgi davr uchun jamiyatni insonparvarlashtirish naqadar dolzarbligini anglash mumkin. Umuman olganda, muloqot madaniyatini takomillashtirish umuminsoniy ehtiyoj sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Atoqli adib B.Shou so'zlari bilan aytganda: «Biz hozir havoda qush kabi uchishni, suvda baliq kabi suzishni o'rganib olgan bo'lsakda, bizga bir narsa — insonlardek yashashni o'rganib olish yetishmaydi». Artur Konon Doyl asarining qahramoni, mashqur izquvar Sherlok Holms ta'kidlaganidek: «Har bir inson o'z hususiyatiga ko'ra hal etilmaydigan jumboq»dir. Kishilar hulqi, fe'l-atvori bilan birbirlaridan farq qiladilar, ammo ular orasidagi o'xshashlik ma'lum darajada saqlanib qoladi.

O'qituvchi bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida umuminsoniy va milliy urf-odat mezonlaridan saboq beradi. O'quvchilar muomala odobini, muloqot olib borish yo'llarini asosan o'qituvchi timsolida anglab oladilar. Muallim bola uchun bir umr ideal, ibrat, namuna bo'lib qoladi. Afsuski, hamma muallimlar ham bolalar nazarida shunday bo'lib qolmaydi. O'zining qo'pol muomalasi bilan o'quvchini o'qishdan sovitib, dilini ranjidatigan o'qituvchilar ham uchrab turadi, albatta. hayotda, amaliyotda bunga ko'plab misollar topiladi. Bunday o'qituvchilar bolalar orasida obro' orttira olmaydilar, aksincha, o'zlariga ham bolalarga ham zarar yetkazadilar. O'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muloqotni tartibga soluvchi talablardan biri bolaning xulqini, muomalasini, bola bajargan ishni odilona, to'g'ri baholashdir. Pedagogik faoliyatda sinfdan va maktabdan tashqari ishlar o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muloqotning muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Sinfdan va darsdan tashqari ishlarning turi nihoyatda ko'p bo'lib, o'qituvchi tomonidan muloqot jarayonida bu ishlarning hususiyati, bajarish jarayoni, natijasi haqida to'liq tushuntirishiga bog'liqdir. Muloqotlar jarayonida o'qituvchi ayrim talablarga rioya qilishga to'g'ri keladi:

1. O'z ishi jarayonida o'qituvchi har bir talabaning qadr-qimmatini inson sifatida hurmat qilishi;
2. O'quvchiga nisbatan ishonchi
3. Talabalarga mehribon, g`amho'r bo'lishi, shodligiga ham, tashvishlariga ham sherik bo'lish;
4. Talabalar bilan har qanday muloqot jarayonida alohida yondoshish, pedagogik taktni saqlash.

O'qituvchi faoliyatida sharqona umuminsoniy qadriyatlardan foydalananish. Milliy dastur, ta'lim to'g'risidagi qonundan kelib chiqadigan vazifalarni mifik o'quvchilari, o'quv yurtlarining pedagog hodimlari, professor o'qituvchilari amalga oshiradilar. Shu bois pedagog hodimlar o'zlarining kasbkor sha'ni va qadr-qimmatlarini himoya qilishlari:

- odob-ahloq qoidalariga rioya etishlari,
- o'quvchi va talaba, o'qituvchi-o'quvchi shaxsining qadr qimmatini asrashlari;
- o'quvchilarni mehnatga, qonunlarga, ota-onalarga, ma'naviyat-arixiy, madaniy-milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat,

-atrof-muqitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashlari, -ibratl faoliyatları va shaxsiy namunalari bilan umuminsoniy axloq qoidalariga, haqiqat, adolat, vatanparvarlik, yaxshilik va boshqa hayrli hislatlarga nisbatan e'tiborni qaror toptirishlari lozim.

Muomala o'z ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan o'zaro axborot almashuvni qamrab olgan bo`lib, u kommunikativ jabha sifatida tavsiflanishi mumkin. Odamlar bir-birlari bilan muloqotga kirishishi jarayonida muomalaning muhim vositalaridan biri hisoblanmish tilga va uning amaliy ifodasi bo`lmish nutq faoliyatiga bevosita murjaa qiladilar. Muomalaning ikkinchi tomoni-muloqotga kirishuvchilarning o'zaro ta'siri, ularning nutq faoliyatida nafaqat so`z orqali fikr almashinuvi, balki hatti-harakati va xulq-atvori bilan o'zaro ta'sir o'tkazish, ta'sirlanishdan (masalan, o'qituvchi va o'quvchilar) iboratdir. Muomalaning uchunchi tomoni shundan iboratki, bunda muloqotga kirishuvchilar (muloqotdoshlar) o'zaro bir-birlarini idrok qilish jarayoni namoyon bo`ladi, insonni inson tomonidan idrok qilish yuzaga keladi. Masalan, bu jarayonning eng zarur tomoni shuki, unda muloqotga kirishuvchi, ya'ni muloqotdosh (sherik) larning bittasi ikkinchisining ishonchiga loyiq, aqli, farosatli, tajribali, yuesak tayyogarlikka ega inson sifatida uni idrok qilish juda muhim ekanligini anglash yoki bir-birlarini oldindan hech narsani tushunmaydi, uzatilgan axborotni fahmlay olmaydi, deb taxmin qilish nazarda ruhiy holat vujudga keladi. Muomalaning har uchala tomonini birlikda, yaxlit hodisa sifatida olib qarash natijasida u hamkorlik faoliyatini tashkil qilishning usuli va unda ishtirok etuvchilarning, ya'ni muloqotdoshlarning o'zaro munosabatlari tariqasida namoyon bo`ladi, muayyan tarzda davomiylikka erishadi.

O'qituvchilarning faoliyati uchun eng muhim narsa-muomalaning qonuniyatları, uning rivojlanishi to`g`risidagi psixologik bilimlar, ko`nikmalar va qobiliyatlarni egallashdir. Kasbiy muammoni muvaffaqiyatli ravishda shunday echish mumkinki, qachonki o'qituvchi o'quvchilar (talabalar) bilan hamkorlik faoliyatiga samarali kirisha olsa, shaxsni shakllantirishning maqsadi va vazifalariga javob beruvchi o'zaro ta'sir, o'zaro tushunuvni yo`lga qo`ya bilsa, faqat mana shundagina pedagogik muomala amalga oshadi, xolos. Pedagogik muomala-bu o'qituvchining o'quvchi (talaba)larga ta'sir o'tkazish usullarining muayyan tizimini aks ettirishdir.

- hamkorlik ishtirokchilarining o'zaro axborot almashuvi;
- turlicha kommunikativ vositalar yordamida o'qituvchi tomonidan o'quvchi (talaba)lar bilan o'zaro ta'sir va o'zaro munosabatlarni tashkil qilish;
- muayyan maqsadni dasturiy asosda amalga oshirishni rejorashtirish va o'tkazish funktsiyasini bajarish kabilalar. muomala va shaxslararo munosabatlarda talaba bilan o'qituvchi o`rtasida turli darajadagi ayrim nizoli holatlar ucharab turadi:
 - o'qituvchi bilan o'quvchi (talaba)o`rtasida fikriy yakdillikning yo`qligi,
 - foyda, naf to`g`risidagi ijtimoiy muammoda shaxsiy fikriy qarama-qarshilik mavjudligi,
 - ayrim ma'naviy to`sinqqa ega ekanligi,
 - narsa va hodisalarining shaxsiy ma'no kasb etishi,
 - ehtiyojlarning nufuzliligi,
 - faoliyat, muomala, xulq uyg`unligining buzilishi kabilalar.

Psixologiya fanida muomala insonlarning o`zaro tushunishi sifatida talqin qilinadi. Bu muammo ta'lim va tarbiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi va shaxslararo idrok qilinishning mexanizmi sifatida quyidagilar namoyon bo`ladi:

Muomala madaniyati, muloqot maromi, pedagogik odobiga o`rgatishning treninglari mavjud bo`lib, ularga hamkorlik faoliyati qatnashchilarini o`rgatish mumikn. Treninglar o`z ichiga odatda quyidagilarni qamrab oladi: 1) yurish-turish, javob berish, o`zgalarga e'tibor qilish mashqlari, 2) muomala qilish usuli, ko`nikmasi, malakasi va odati yuzasidan mashqlar, 3) muomalaning umumiy qonuniyatlarini o`rganish, ya`ni pedagogik muomala tizimini egallash mashqlari, 4) pedagogik kommunikatsiya texnologiyasi va instruksiga oid treninglar va boshqalar.

O'quvchilarda o'qituvchilar bilan muloqot jarayonida munozara qilish ehtiyoji tug`ilsa, bunga imkoniyat yaratishga intilish joiz. O'quvchi fikrining noto'g'rilingini isbotlash uchun uning harakteridagi nuhsonlarni yuziga solish shart emas.

Ko'p hollarda yosh o'qituvchilar sho'h o'quvchilar bilan muloqotda qiyinchilikka duch keladilar. Agar siz bunday o'quvchilar qalbiga yo'l topmoqchi bo'lsangiz, o'quvchiga murojaatingizni «nima uchun», «Qanday qilib» kabi savollar bilan boshlashga harakat qiling. Bu muloqotning rivojlanishini ta'minlaydi. Lekin esda tutish kerakki, bunday o'quvchilar bilan suhabatda, jonli o`zaro munosabat ipining uzilishi havflidir. Muloqot doimiy va uzlusiz bo'lishi lozim. quyidagi reja bunga yordam beradi:

sizda o'quvchilar bilan muloqot jarayonida boshi berk ko'chaga kirish Hollari sodir bo'ladimi, buning sabablari nimada?

pedagogik ish faoliyatizingizda bolalar bilan munosabatda ishingiz o'ngidan kelmagan paytlar bo'lganmi? Ularni qanday bartaraf etgansiz?

dars jarayonida har bir o'quvchi bilan ishlay olasizmi? Agar o'quvchi bilan tillasha olmayotganingizni sezsangiz, uni yo'lga qo'yishga harakat qilasizmi?

Bolalar bilan muloqotda tashabbuskor bo'lishni unutish, muloqotdagi tashabbuskorlik sizga bilish faoliyati ni muvaffaqqiyatli bajarishga yordam beradi.

Muloqotda tashabbuskor bo'lish, bu:

kishilar bilan ruhiy alohani tez yo'lga g'o'ya bilish; shahslararo o`zaro ta'sirni maqsadga yo'naltirilgan holda boshqarish, shahslararo munosabatning zarur darajasiga erishish;

tug'ilayotgan pedagogik vazifalarga muvofiq ravishda o'quvchilar bilan o`zaro harakat muloqot shakllari, uslubi, usullarini qayta ko'rish;

o'quvchilarning pedagogik jarayandagi sustkashlikla barham berish, ularni faol muloqotga jalg etishi kerak. Mana shundagina o'qituvchi va o`quvchi munosabatlari mustahkamlanadi, ijobiyo'ladi va eng asosiysi ta`lim sifati yana rivojlanadi. Chunki o`zaro hurmat bor joydagina yuksalish bo'ladi.